

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI**

"Himoyaga tavsiya etilsin"

Filologiya fakulteti dekani

_____ **R.Jumayev**
“ ” _____ 2019-yil

ANVAROVA MAFTUNA ANVAR QIZINING

5120100- Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)

ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini olish uchun

**ABDULLA QAHHORNING “O‘G‘RI” HIKOYASIGA OID MATN
KORPUSINI YARATISH**

mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bitiruvchi talaba:_____ **M.Anvarova.**

Ilmiy rahbar _____ f.f.n. **Yuldosheva N.**

“ ” _____ 2019-yil

"Himoyaga tavsiya etildi"

O‘zbek tilshunosligi kafedrası

mudiri _____ dots. **B.Bahriddinova**

“ ” _____ 2019-yil

QARSHI-2019

ABDULLA QAHHORNING “O‘G‘RI” HIKOYASIGA OID MATN KORPUSINI YARATISH.

Mundarija

Kirish

I BOB.	Korpus lingvistikasi shakllanishi, taraqqiyoti va nazariyasi.....
1.1	.Korpus va korpus lingvistikasi haqida.....
1.2	Korpus lingvistikasining shakllanishi va taraqqiyoti.....
1.3	Korpus lingvistikasining bugungi holati, muammolari va ularni yechish yo‘llari.....
II BOB.	O‘zbek tili mualliflik korpusini tuzishning xususiy lingvistik asoslari (Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasi asosida).....
2.1.	Abdulla Qahhor asarlari korpusi interfeysining o‘ziga xos xususiyatlari hamda morfologik teglash va lingvistik modellashtirish yo‘llari.....
2.2.	Morfologik razmetkalashning lingvistik model va teglari.....
2.3.	“O‘g‘ri” hikoyasining morfologik razmetkasi.....
Xulosa.....	
Adabiyotlar ro‘yxati.....	

KIRISH

Tadqiqot mavzuning dolzarbligi. Jahon tilshunosligida kompyuter va korpus lingvistikasi muammolarini o'rganish XX asrning 40-yillarida boshlanib, bu sohada dastlabki ilmiy farazlar aytili. Xususan, o'tgan asrning 60-yillarida mazkur jarayon jadallashdi, XXI asr boshlarida o'zida millionlab so'zlarni aks ettiruvchi yuzlab til korpuslar paydo bo'ldi. Sun'iy intellektning avtomatik tarjima, kompyuter tahlili, tahriri, tezarus, elektron lug'at singari imkoniyatlari kengaydi, ilmiy-nazariy asoslari yaratildi, amaliyotda qo'llash mumkin bo'lgan ilk namunalari qo'llanila boshladi. Fandagi bu yangilanishlar axborot texnologiyalarini tilshunoslikka tatbiq etish bilan bog'liq istiqbolli ilmiy yo'nalish paydo bo'lishiga yo'l ochdi. Bu esa korpus, korpus lingvistikasi, uning shakllanishi, taraqqiyoti, bugungi holati va korpus tuzishning umumiy tamoyillarini o'rganish zaruratini hamda mavzu dolzarbligini belgilab beradi.

Dunyo tilshunosligida XXI asrga kelib, korpus lingvistikasini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish harakati kuchaydi. Tilshunoslikda, xususan, kompyuter lingvistikasi sohasida korpus yaratish, mavjud korpuslar hajmini kengaytirish, matnni avtomatik qayta ishlaydigan dasturlarni ishlab chiqish kabilar yechimini kutayotgan muhim masalalardan biri bo'lib turibdi.

Istiqbol yillarida kompyuter lingvistikasida avtomatik tarjima, sun'iy intellektning o'zbek tilini tushunish va qayta ishlashiga erishish borasida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa ham, korpus lingvistikasi yaxlit tarzda o'rganilmagan. Binobarin, barcha ilmiy yo'nalishlar qatorida tilshunoslikda ham "...ilmiy va ijodiy izlanishlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ular uchun zarur shart-sharoitlar yaratish vazifa"¹. sining belgilanishi fanlar integratsiyasi bo'yicha chuqur izlanishlar olib boorish zarurligini ko'rsatadi. Mamlakatimizda

¹. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – B.13.

tilga e'tibor ma'naviyatga e'tiborning ustuvor yo'nalishlaridan biri darajasiga ko'tarildi. Shu boisdan ona tilimizni asrab-avaylash, boyitish, undan amaliy foydalanish samaradorligini oshirish bilan birga, o'zbek tilining zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimida keng qo'llanishiga erishish kechiktirib bo'lmaydigan, dolzarb vazifaga aylandi. Korpus lingvistikasi istiqbolli ilmiy yo'nalishi sifatida o'zbek tili milliy korpusini yaratish, mualliflik korpusi tuzishning lingvistik asoslarini ishlab chiqish, lingvistik modellarni tuzish singari masalalarni zamonaviy ilmiy tamoyillar asosida tadqiq etish fanimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Korpus, uning o'ziga xos xususiyati, ijtimoiy, leksikologik, ta'limiy va boshqa sohalardagi ahamiyati, korpus lingvistikasi tarixi, korpus turlari, mualliflik korpusining lingvistik qimmatini o'rganish, o'zbek tili mualliflik korpusini yaratishning lingvistik asoslarini ishlab chiqish maqsad etib belgilangan.

Asosiy maqsadga quyidagi vazifalarni bajarish asosida erishiladi:

- Korpus, korpus lingvistikasi, uning shakllanishi, taraqqiyoti, korpus tuzishning umumiy tamoyillarini o'rganish;
- Mualliflik korpuslarining mushtarak va farqli jihatlarini aniqlash;
- Abdulla Qahhorning "O'g'ri" hikoyasi korpusi interfeysining dizayn, qidiruv tizimi, ma'lumotlar bazasi oynasi mazmuni kabi xususiyatlarini tavsiflash;
- "O'g'ri" hikoyasi misolida so'zlarni morfologik teglash va lingvistik modellashtirish yo'llarini asoslash;

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida korpus lingvistikasi o'tgan asrning 60-yillarida o'rganish obyektiga aylangan. Korpus sohasidagi maqsadli tadqiqotlar XX asrning 40-yillarda boshlangan. Braun korpusi (1961-1964) tuzuvchilari Nilson Frensis va Genri Kuchera ilk marta korpus tuzish prinsiplarini ishlab chiqqan. Rus tilshunosligida V.P.Zaharov,

A.B.Kutuzov, Y.V.Nedoshivina, V.V.Rikov, V.Plungyanlar korpus, uning turlari, o'ziga xos xususiyati, korpusning ijtimoiy ahamiyati, korpus tuzish tamoyillari borasida tadqiqot olib borishgan. Mualliflik korpuslari O.V. Kushkina, A.A.Polikarpov, Y.V.Surovsevalar tomonidan tadqiq etilgan². O'zbek tilshunosligida kompyuter lingvistikasi, matnga leksikografik ishlov berish va lingvostistik tahlil etish borasida birmuncha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, A.Po'latov, H.Orziqulov, S.Muhamedov, M.Ayimbetov, S.Muhamedova, S.Karimov, G.Jumanazarova, A.Babanarov, D.O'rinboyeva, N.Abdurahmonova, A.Norov va boshqalarning kuzatishlarida qayd etilgan. Bu tadqiqotlar matnni innovatsion yondashuv-kompyuter lingvistikasi yutuqlari yordamida leksikografik va lingvostatistik tadqiq etishning zamonaviy usullarini tavsiya etganligi bilan dolzarblik kasb etgan bo'lsa-da, ularning hech birida o'zbek tili korpuslarini yaratish masalasi kun tartibiga qo'yilgan emas. Ammo ular milliy tilimiz korpusini yaratish yo'lida qo'yilgan tamal toshlari bo'lganligini ta'kidlash joiz.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Korpus, korpus lingvistikasi, uning shakllanishi, taraqqiyoti, korpus tuzishning umumiy tamoyillari bitiruv malakaviy ishi doirasida o'rganildi hamda mualliflik korpuslarining mushtarak va farqli jihatlarini aniqlandi. Shuningdek, Abdulla Qahhorning "O'g'ri" hikoyasi korpusi interfeysining dizayn, qidiruv tizimi, ma'lumotlar bazasi oynasi mazmuni kabi xususiyatlari tavsiflanib, hikoya misolida so'zlarni morfologik teglash va lingvistik modellastirish yo'llari ishlab chiqildi.

BMI obykti va predmeti. Tadqiqotning obykti sifatida korpus, uning turlari hamda mualliflik korpusi tanlangan bo'lib, uning predmetini Abdulla

² www.ruslang.ru/seminar_aut_lexicogr020413. Методическое руководство по работе с системой "ИСТОК" и корпусом текстов А.П.Чехова. (Авторы: Кукушкина О.В, Суровцева Е.В, Поликарпов А.А., Варламов А.А., Федотов В.В.).

Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasi korpusi interfeysi, korpus birliklari, teglash muammolari tashkil etadi.

BMIning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot kompyuter lingvistikasining yangicha tahlilidagi tegishli bo‘shliqni to‘ldirib, mavjud talqinlardagi ayrim kamchiliklarni, munozarali masalalarni bartaraf etishda nazariy ahamiyat kasb etadi. Ishning amaliy ahamiyati esa: a) oliy maktabning o‘zbek filologiyasi yo‘nalishlarida “Kompyuter lingvistikasi” kursi dastur va darsliklarida «Sun’iy intellekt yaratish» mavzusini rejalashtirish hamda bayon etishda asosiy manba vazifasini o‘tashi; b) o‘rta ta’lim bo‘g‘inlarida o‘zbek tili o‘qituvchilariga so‘z turkumlari mavzusi bo‘yicha yordamchi metodik qo‘llanmalar tuzishda qo‘l kelishi; v) oliy ta’limda lingvistik korpus muammolari, shuningdek, so‘z turkumlari tipologiyasi bo‘yicha ixtisoslik ta’limi kurslarini o‘qitishda foydalanilishi bilan belgilanadi.

BMIning tuzilishi va hajmi. Ishning umumiy hajmi bet bo‘lib, u kirish, 2 bob, xulosa va adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

BIRINCHI BOB

KORPUS LINGVISTIKASI SHAKLLANISHI, TARAQQIYOTI VA NAZARIY ASOSLARI

1.1. Korpus va korpus lingvistikasi haqida

Hozirgi kunda korpus lingvistikasi jahon kompyuter lingvistikasining juda tez rivojlanib ketayotgan sohasi bo'lib, bu borada ancha yutuqlarga erishilgan. Hatto dunyo oliy ta'lim muassalarida korpus lingvistikasi fan sifatida korpusning o'ziga xosligi, dasturlash asoslari kabi jihatlari o'qitiladi. Korpus lingvistikasining predmeti- til korpusi. U ingliz tilida *linguistic corpus* yoki *text corpus* kabi atamalar qo'llanib, unga "ma'lum maqsadda yig'ilgan matnlar majmuini tashkil etuvchi til birliklarining yig'indisi", "alohida tilning yozib olingan og'zaki hamda yozma matnlari asosidagi lingvistik ma'lumotlar majmui", "istalgan tabiiy (real) tildagi elektron shaklda saqlanadigan yozma yoki og'zaki, kompyuterlashtirilgan qidiruv tizimiga joylashtirilgan matnlar yig'indisi" kabi ta'riflar beriladi. Til korpusi deganda esa ma'lum tilning belgilangan davrdagi, xilma-xil janr, rang-barang uslub, hududiy hamda ijtimoiy variantdagi matnlarining elektron shakldagi maxsus dasturiy ta'minot asosidagi yig'indisi tushuniladi. Til korpusi bugungi kunda jahonda tez taraqqiy etayotgan soha- korpus lingvistikasi mutaxassislari tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borish, til o'rgatish maqsadida yaratilmoqda va u zamonaviy tilshunoslikning inkor etib bo'lmaz ish quroliga aylanmoqda. Jahon tillarining juda ko'pchiligi mukammallik darajasi, matnni qayta ishlash imkoniyati bilan farq qiluvchi o'z milliy korpuslariga ega. Til korpusi elektron kutubxonadan farqli ravishda muayyan tilni tadqiq qilish, o'rganish va o'rgatish uchun zaruriy, foydali va qiziqarli matnlar to'planishiga xizmat qiladi. Bunday matnlar esa nafaqat badiiy adabiyot namunasi, balki telefondagi oddiy suhbat yozuvi yoki ijara shartnomasi matni ham bo'lishi mumkin.

Korpusni elektron kutubxonadan ajratib turuvchi birinchi omil undagi matnning xususiyati, qo'shimcha ma'lumot bilan boyitilganligi hisoblanadi hamda

bu belgi korpusning alohida qismi – korpus annotatsiyasi (rus., razmetka)ni tashkil etadi. Korpusda korpus menedjeri mavjud bo‘lib, u foydalanuvchi uchun turli imkoniyat va qulaylik yaratadigan, korpusdan zaruriy axborotni olishga yordamlashadigan bir necha maxsus dasturiy vosita – konkordans (qidiruv tizimining nisbatan oddiy ko‘rinishi) deb ham yuritiladi. Korpus menedjeri maxsus qidiruv tizimi, u korpus ma’lumotlarini olishga mo‘ljallangan bir necha dasturlardan iborat bo‘lib, statistik axborot va qidiruv natijasini foydalanuvchiga qulay shaklda taqdim etadi. Korpus menedjerining qidiruv imkoniyati aniq so‘zshakli, so‘zning lemma (korpusda leksema shunday ataladi) shakli, birikmali bo‘lingan va bo‘linmagan sintagma, morfologik belgilarga asoslangan jamlanma shaklini qamrab oladi. Turli lingvistik topshiriq/amalni bajarish uchun matnga lingvistik va ekstralingvistik qo‘shimcha ma’lumot bilan ishlov berilgan bo‘lishi lozim. Buning uchun matn annotatsiyasi mavjud, matn, uning komponentlariga maxsus izoh (masalan, so‘z turkumi haqida ma’lumot) berilishi lozim. Bu izoh matn razmetkasi (belgi, ishora) yokiannotatsiyadebataladi. Mukammal annotatsiya tadqiqotchiga qidirilayotgan so‘z, so‘zshakl va kontruksiyaning topishni osonlashtiradi. Chunki oddiy elektron matnda uning xarakterini ochuvchi alohida ma’lumot (annotatsiya) mavjud emas. Til korpuslarida bugungi kunda annotatsiyaning morfologik, sintaktik, semantik, aksentik kabi bir necha ko‘rinishi mavjud.

Korpus tuzish uning tamoyillarini ishlab chiqish haqida so‘z borganda asosiy e’tiborni korpusni loyihalashtirish, razmetkalash, unga mos qidiruv tizimi – korpus menejerini tanlashga qaratish lozimligi e’tirof etish lozim. Korpusda razmetkaning ahamiyati beqiyos, chunki korpusdan foydalanish imkonining keng yoki torligi korpusning razmetkasiga bog‘liq. Mukammal razmetka – keng imkoniyatli, universal korpus garovi. Korpus tuzish uchun razmetka dasturlari – parsing, tagginglar muhim vosita, ular bugungi kunda sun’iy intellektning o‘zbek tilini “o‘qish, tushunish, qayta ishlash, unga mos javob qaytarish”ga qodir dasturlar yaratish dasturchilar oldida turgan dolzarb vazifa ekanligini ko‘rsatadi.

Lingvistik razmetkada har bir soʻz maʼlum kodga ega boʻlishi bilan xarakterlanadi va kod *teg*, soʻzni kodlash esa *tegging* (ingl. Tagging) deb ataladi. Shuningdek, razmetkani *lingvistik* va *ekstralingvistik* turga ajratish mumkin. Ekstralingvistik razmetkaning quyidagi turlari farqlanadi:

1. Matn formatining oʻziga xosligini aks ettiruvchi (bob, xatboshi, qism va h.) razmetka.

2. Matn, uning muallifiga tegishli maʼlumotni ifodalovchi razmetka.

Chunki muallif haqidagi maʼlumotlar nafaqat nom, balki yosh, jins, uyashagan yil kabi maʼlumotlarni ham bildirishi mumkin.

Lingvistik razmetkaning ham oʻz navbatida bir qancha koʻrinishi mavjud:

1. Morfologik razmetka keyingi-sintaktik va semantik razmetkaga asos boʻluvchi ahamiyatli razmetka hisoblanib, ingliz tilida part-of-speech tagging deb ataluvchi, soʻzlarni turkumga ajratuvchi razmetkadir.
2. Sintaktik razmetka – sintaktik tahlil, parsing (ingl. parsing) natijasi, u komponentlarining grammatik strukturasiga asoslanadi. Gapdagi boʻlaklar orasidagi sintagmalar grafik, shajara tarzida, matnda esa ular otli, feʼlli hamda murakkab birikmalarni, sodda, qoʻshma gapni koʻrsatuvchi ochiluvchi, yopiluvchi qavslar yordamida koʻrsatiladi. Sintaktik razmetkaga ega korpuslar *treebanks* nomi bilan ommalashgan.
3. Semantik razmetkaning ham, boshqa razmetkalarda boʻlganidek, yagona standart shakli boʻlmasa ham, harf, raqam yoki faqat raqamdan iborat kodlardan foydalaniladi. Birinchi harf yoki raqam umumiy semantik maʼnoni, keying belgi esa soʻz maʼnosini yanada maxsuslashtiruvchi kichik semantik guruhni ifodalaydi. Semantik razmetka korpusdagi soʻz maʼnosining ixtisoslashuvchi, omonimlik, sinonimlik, maʼnoviy guruhga ajratish kabi muammolarni hal qiladi.
4. Anaforik razmetka. Matnga ishlov berishda katta qiyinchilik tugʻdiradigan turkum bu olmosh, chunki matndagi qaysi soʻzga ishora qilishiga qarab turli maʼnoni bildiradi. Ishora soʻzning matndagi maʼnosini ajratib olish uchun

razmetkaning alohida ko‘rinishiga ehtiyoj tug‘iladi. Anaforik razmetka shu hildagi ma’lumotni qo‘shish uchun kerak bo‘ladi.

5. Prosodik razmetka. Ovoz transkripsiya qilingan korpusda urg‘u, ohangni ifodalovchi izoh mavjud bo‘ladi. Razmetkaning diskurs deb ham ataluvchi ushbu turi sharh, izoh, eslatma, takrorlardagi to‘xtamlarni bildirish uchun ishlatiladi.

Korpusni razmetkalash (annotatsiyalash) dasturlashtirilgan yo‘llar bilan amalga oshiriladi.

Lingvistik korpusning ajralmas, eng asosiy qismi uning qidiruv tizimi – korpus menejeri, u matn, lisoniy birliklarni boshqaruvchi sistema. Korpus menejeri – korpus ma’lumotlari ustida ishlash uchun mo‘ljallangan maxsus qidiruv tizimi, u statistik ma’lumot, qidiruv natijasini foydalanuvchiga qulay ko‘rinishda ko‘rsatib beruvchi dasturiy ta’minot hisoblanadi. Korpus menejeri, ya’ni uning qidiruv tizimi korpusning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Tilning milliy korpusi axborot manbai sifatida quyidagi qulayliklarni yaratishini ta’kidlash joiz:

- 1) korpuslashgan tilda yaratilgan og‘zaki, yozma yodgorliklar, milliy madaniy meros namunalari elektron ko‘rinishda internet tarmog‘idan joy oladi;
- 2) korpus tabiiy(real) tilning elektron shakldagi, qidiruv dasturiga joylashtirilgan matnlar yig‘indisi: bir marta tuzilib, mukammal teglangan korpus lingvistik tadqiqotlar samaradorligini ta’minlashda barqaror lingvistik tadqiqotlar samaradorligini ta’minlashda barqaror lingvistik baza vazifasini bajaradi;
- 3) korpus elektron kutubxona, lug‘at, grammatikalar yaratishga asos bo‘ladi. U keng ko‘lamli bo‘lganligi uchun ma’lumotning o‘ziga xosligini kafolatlab, til hodisalarining barcha qirralarini to‘liq namoyish etishini ta’minlaydi;

- 4) turli ma'lumotlar til korpusida o'zining tabiiy kontekstual shaklida joylashadi, bu esa ularni har tomonlama, chuqur, obyektiv o'rganishga asos bo'ladi;
- 5) korpus- tilni tadqiq etish (so'zning o'zgarishi, istorizm neologizmlarning vujudga kelishi, ma'no kengayishi, torayishi, yangi frazeologizmlarning paydo bo'lishini kuzatish), til o'rganish, lug'at tuzishda eng zamonaviy, keng imkoniyatli dasturlashtirilgan tizim.

1.2. Korpus lingvistikasining shakllanishi va taraqqiyoti

Korpus sohasidagi maqsadli tadqiqotlar XX asrning 40-yillarda (Blumfild, Frays va Bondjers) boshlanganligi, lekin 50-60-yillarda Noam Xomskiy konsepsiyasi (xomskianskaya lingvistika, chomskyan linguistics) ustunlik qila boshlagani haqida fikr yuritilar ekan, korpusni tuzish, o'rganish korpus lingvistikasi sohasi rivojlanishidan ancha oldin – XVIII asrlarda boshlanganligi aytib o'tiladi.

Korpus lingvistikasi borasida jahon tilshunosligida amalga oshirilgan tadqiqotlar haqida fikr yuritar ekanmiz, inglizcha *corpus linguistics* atamasi ilk marta 1984-yilda qo'llanganlagini, Rossiyada ushbu atama korpus lingvistikasi mutaxassisi – mashhur xalqaro ingliz tili korpusi asoschisi Sidni Grinbaum ma'ruzasidan keyin 1996 yilda (International Corpus of English) kirib kelganligini aytib o'tish lozim. Shuningdek, kompyuter asrigacha bo'lgan korpus noelektron shaklda bo'lganligini, ma'lumotlarni korpusdan topishning avtomatlashmaganligi bilan xarakterlanadi.

Korpus lingvistikasining lokomativi – ingliz tili ekanligini bo'lib, unga ilk ingliz tili "Brown corpus"ini (1960 y.), rus tili (Уппсальский корпус русских текстов, 1980 й.) korpuslari misol bo'la oladi.

Kompyuter korpuslari yaratishning asosiy davrlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

- I. 1960-yillar: Braun korpusi (AQSh) – 1 million soʻz.
- II. 1970-yillar: LOB korpusi (Buyuk Britaniya, Norvegiya)- 1 million soʻz.
- III. 1980-yillar:
 1. Rus tilining mashina fondi (Машинный Фонд русского языка).
 2. Rus tilining Upsalla korpusi (Уппсальский корпус русского языка. Швеция) – 1 million soʻz.
- IV . 1990-yillar:
 1. British National Corpus (Britaniya milliy korpusi)- 100 million soʻz.
 2. Milliy korpuslar (venger, italyan, xorvat, chex, yapon) – 100 million soʻz.
 3. Ingliz tili banki (The Bank of English, Birmingham (Collins Cobuild) – 600 million soʻz.
- V. 2000- yillar:
 1. American National Corpus (Amerika milliy korpusi) – 100 million soʻz.
 2. Zamonaviy Amerikancha ingliz tili korpusi (Corpus of Contemporary American English) – 400 million soʻz.
 3. Национальный корпус русского языка (Rus tili milliy korpusi) -140 million soʻz.
 4. Gigaword corpora: ingliz, arab, xitoy tillari – 2 milliard soʻz.

2003-yilda ishlab chiqilgan 100 million soʻz qoʻllash holatini qamrab olgan Amerika milliy korpusi, Gigaword corpora – ingliz, arab, xitoy va boshqa tillarni monitориingli korpuslari eng qimmat korpus sanaladi.

1.3 . Korpus lingvistikasining bugungi holati, muammolari va ularni yechish yo‘llari

Bugungi kunda samaradorlikni oshirishning yagona yo‘li ishlarni kompyuter vositasida amalga oshirishdir. Bu, esa o‘z navbatida, hamma sohalarni kompyuterda ishlashga moslashtirishni taqozo etadi. Kompyuter tibbiyoti, kompyuter iqtisodiyoti, kompyuter huquqshunosligi qatorida tilshunoslikda ham kompyuter lingvistikasi yo‘nalishining yuzaga kelishi tabiiy holdir. O‘zbek kompyuter lingvistikasini yaratish oldimizda turgan dolzarb masala. Bu o‘zbek tilini kompyuterga olib kirish, ya’ni til bilan bog‘liq masalalar – o‘zbek tiliga o‘qitish, bilimlarni baholash(test), matnlarni o‘zbekcha ovozlashtirish, axborotni ovoz orqali kompyuterga kiritish, matnlarni tahrirlash, tarjima qilishni kompyuterda bajarish imkonini yaratadi.

O‘zbek kompyuter lingvistikasini yaratishda ingliz kompyuter lingvistikasidan to‘g‘ridan to‘g‘ri foydalanish imkonsiz. Faqat uning asosiy g‘oyalariga tayanish mumkin. O‘zbek kompyuter lingvistikasi tilimizning o‘ziga xosliklari asosida shakllantiriladi. O‘zbek kompyuter lingvistikasini yaratishdan oldin ona tilimizni yuqori va to‘liq darajada sistemalashtirish, formallashtirish vazifalarini yechish kerak. Demak, o‘zbek tili kabi boy, keng va chuqur rivojlangan tillar masalalarini kompyuterda yechish darajasiga olib chiqish ingliz tiliga qaraganda katta hajmdagi ishni bajarishni talab etadi.

O‘zbek kompyuter lingvistikasi oldiga turgan asosiy masalalar quyidagilardan iborat:

1. O‘zbek tili kompyuter axborot uslubini ishlab chiqish;
2. O‘zbek tilining leksik va gramatik izohli lug‘atlarini qayta tuzish;
3. O‘zbek tili grammatikasining formal modelini ishlab chiqish;
4. O‘zbek tili grammatikasining aksiomatik nazariyasini yaratish;
5. Matnlarni o‘zbekcha o‘qiydigan kompyuter dasturiga asos solish;

6. O'zbek tilidagi ma'lumotlarni kompyuterga ovoz orqali kiritishni (klaviatura o'rniga) amalga oshirish;
7. O'zbekcha matnlarni tahrirlovchi kompyuter dasturlarini yaratish (ingliz va rus tillarida mana shunday tahrirlash dasturlari bor)

Dunyo tilshunosligida XXI asrga kelib, korpus lingvistikasini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish harakati kuchaydi. Tilshunoslikda, xususan, kompyuter lingvistikasi sohasida korpus yaratish, mavjud korpuslar hajmini kengaytirish, matnni avtomatik qayta ishlaydigan dasturlarni ishlab chiqish kabilar yechimini kutayotgan muhim masalardan biri bo'lib turibdi. Bugungi kunda korpus lingvistikasi jahon kompyuter lingvistikasining juda tez rivojlanib ketayotgan sohasi bo'lib, bu borada ancha yutuqlarga erishilgan. Hatto dunyo oliy ta'lim muassalarida korpus lingvistikasi fan sifatida korpusning o'ziga xosligi, dasturlash asoslari kabi jihatlari o'qitiladi.

Korpusning maqsadi hamda oldiga qo'yilgan vazifasiga qarab quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

- I. Saqlash shakliga ko'ra:
 - 1) ovozli
 - 2) yozma
 - 3) aralash
- II. Matn tiliga ko'ra:
 - 1) bir tilli
 - 2) ko'p tilli
- III. Janriy mansubligiga ko'ra:
 - 1) adabiy
 - 2) dialektal
 - 3) og'zaki
 - 4) publitsistik
 - 5) aralash
- IV. Kirish imkoniyatiga ko'ra:

- 1) erkin korpus
- 2) tijorat korpuslari
- 3) yopiq korpus

V. Maqsadiga ko‘ra:

- 1) tadqiqiy
- 2) illyustrativ

VI. Dinamikligiga ko‘ra:

- 1) dinamik (monitor)
- 2) turg‘un

VI. Qo‘shimcha axborotga egaligiga ko‘ra:

- 1) annotatsiyalangan (razmetkalangan)
- 2) razmetkalanmagan.

Korpusning tur,xillari qancha ko‘p bo‘lmasin, ularni dastlab ikki tomondan guruhlash maqsadga muvofiq:

- butun til (odatda, tilning ma’lum davri)ga yoki uning ma’lum bir voqelanish turi (janr, uslub , biror ijtimoiy yoki yoshga oid guruh, yozuvchi yoki olim tili)ga oidligiga ko‘ra;
- lingvistik razmetka turiga ko‘ra.

Shuningdek, nutq turiga ko‘ra, uning yozma, og‘zaki, aralash shakli ajratiladi.

IKKINCHI BOB.
O‘ZBEK TILI MUALLIFLIK KORPUSINI TUZISHNING XUSUSIY
LINGVISTIK ASOSLARI.
(ABDULLA QAHHORNING “O‘G‘RI” HIKOYASI ASOSIDA)

2.1. Abdulla Qahhor asarlari korpusi interfeysining o‘ziga xos
xususiyatlari hamda morfologik teglash va lingvistik
modellash tirish yo‘llari

Mualliflik korpusi tuzishda ikki manbaga asoslanish mumkin:

1. Har bir muallifning nashr etilgan mukammal asarlari to‘plami.
2. Internet tarmog‘idagi elektron fayllar. Birinchi manbani elektron shaklga aylantirish (skanerlash, matnni sun‘iy intellekt tushunadigan formatga keltirish) orqali material sifatida ishlatsak, ikkinchi manbadan nisbatan tayyor holda foydalanishimiz mumkin. Ikkala holda ham matnning elektron shakli olingach, uni texnik qayta ishlash – tokenizatsiya, lemmatizatsiya, sintaktik razmetkalash ehtiyoji tug‘iladi.

Korpus interfeysi – foydalanuvchini uning butun mazmuni bilan tanishtiruvchi, mundarija vazifasini bajaruvchi juda muhim tarkibiy qismi. Mualliflik korpusi interfeysi muallif ijodiy merosi janriy tasnifini bir qarashdayoq tushunish uchun yaxshi imkoniyat, korpusning boshqa bazalardan farqi ham aslida shunday imkoniyatning mavjudligidadir.

Mualliflik korpusi mualliflik leksikografiyasi bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli mualliflik leksikografiyasi taraqqiyot darajasi korpus lingvistikasi bilan ikki tomonlama munosabatdadir. Birining taraqqiyotini ikkinchisining rivojisiz ko‘rib bo‘lmaydi. Afsuski, tilshunoslikning bu ikki yo‘nalishini jahon tilshunosligida ham rivojlangan soha deb bo‘lmaydi; mualliflik leksikografiyasi yo‘nalishida ancha ishlar qilingan bo‘lsa ham, mualliflik korpusi taraqqiyoti turg‘un holatda. Zero, mukammal tuzilgan, chuqur razmetkalangan mualliflik

korpusi asosida bugun leksikologiya, leksikografiya, til tarixi, dialektologiya, sotsiolingvistika, boshqa soha rivojiga xissa qo'shishi, yangi-yangi imkoniyatlar eshigini ochishi mumkin. Mualliflik korpusi yordamida ma'lum yozuvchi yoki shoir tili konkordansini tuzish, milliy korpus, ma'lumotlar bazasini yaratish shular jumlasidandir.

Mualliflik korpusi tuzishning umumiy tamoyillari asosida Abdulla Qahhor asarlari korpusi tuzish prinsiplari ishlab chiqish o'zbek tili hamda A.Qahhor ijodining o'ziga xos jihatlariga alohida e'tibor qilishni talab etadi. Mualliflik korpusi tarkibiy qismlarining to'g'ri joylashtirilishi, korpus mazmuni, materiali, razmetkasi hal qiluvchi omillar bo'lganligi uchun Abdulla Qahhor korpusini tuzishning muhim bosqichlari korpus interfeysini loyihalash (1), korpusga material tanlash, uni qayta ishlash (2), korpus razmetkasi tamoyillarini ishlab chiqish (3), morfologik, semantik, sintaktik razmetka teglarini modellashtirish (4), dasturiy ta'minot yaratishdan iborat bo'ladi.

Abdulla Qahhor hikoyalari korpusini tuzish uchun morfologik razmetkalash tamoyillarini ishlab chiqish lozim, chunki o'zbek tilini "tushunadigan" – avtomatik razmetkalay oladigan dastur mavjud emas. Korpus interfeysi dizayni, tuzilishi, qidiruv oynalari, ularning tarkibi, korpus materiali korpus lingvistikasi mutaxassisi tomonidan, dasturiy ta'minot esa dasturchi tomonidan tayyorlanadi. A. Qahhor korpusiga material tanlash ham muhim masala. Korpus matnlarining razmetkalanishi A.Qahhor asarlari matni ustida turli lingvistik amallarni bajarish, adabiyotshunoslik, tarix, etnografiya, lingvomadaniyatshunoslik, lingvoma'naviyatshunoslikka oid tadqiqot olib borishda ko'p funksiyali axborot manbai sifatida xizmat qila oladi. Buning uchun korpusning asosiy bazasi tuzilayotgan vaqtda to'g'ri rejalashtirilgan bo'lishi lozim.

O'zbek tilidagi matnlarni morfologik razmetkalashning o'ziga xos tamoyillarini ishlab chiqish obyekt sifatida olingan "O'g'ri" hikoyasi razmetkalash uchun qo'llanma vazifasini bajara oladi. Morfologik razmetka tizimiga so'zshakl, lemma va teg kiradi. So'zshakl – tanlangan matndagi morfologik birlik.

Soʻzshaklni razmetkalashning birinchi bosqichi uni lemmalash, yaʼni soʻzshaklning leksema shaklini keltirishdan iborat. Soʻzshaklning grammatik shaklsiz qismi–oʻzak yoki negiz lemmaga teng. Razmetkada lemma <*> belgisi ichida beriladi. Barcha soʻz turkumlarida lemmalash shu asosda, yaʼni “soʻzning oʻzak-negiz qismi lemmaga teng” tamoyiliga asoslansa, feʼl turkumida feʼl-lemma II shaxs buyruq-istak mayli shaklida beriladi. Lugʻat maqolalarida feʼl harakat nomi shaklida beriladi:<*bormoq*>. Ammo bu shakl korpus uchun mos emas, chunki korpusdagi matnda soʻzning *bormoq* shakli emas, <*bor*> shakli qidiriladi. Shundan kelib chiqib, feʼl-lemma **keldi** <kel>, **boʻlmadi** <boʻl>, **koʻrsatdi** <koʻr>, **oldi** shaklida beriladi. Feʼl-iboraning lemma shaklini “Frazologik lugʻat”dagi kabi *-moq* qoʻshimchasi bilan berish toʻgʻriroq, chunki “tepa sochi tikka boʻlmoq” kabi gap qurilishli iborani <tepa sochi tikka boʻl> shaklida lemmalashda hech qanday maʼno yoʻq. Shunga asoslanib, iboraning *tepa sochi tikka boʻldi* <tepa sochi tikka boʻlmoq> tarzida razmetkalanishi maqsadga muvofiq. Boshqa barcha soʻz turkumlari <*> belgisi ichida oʻzak-negiz shaklida leksema holida yoziladi: *tongda* <tong>. Ot soʻz turkumidagi lugʻaviy shakl lemmaga kiritilmaydi, chunki bu shakl leksik maʼnoga taʼsir qilmaydi, razmetkada *qizcha* <qiz> koʻrinishida aks etadi. Ayrim soʻzlar bundan mustasno. Chunonchi, *bogʻcha*, *koʻrpacha* soʻzlari shu holida lemmaga teng, chunki ulardagi *-cha* kichraytirish shakli emas. Razmetkalash jarayonida har bir soʻzshaklga 5 tadan 10 tagacha, baʼzan undan ham koʻproq morfologik teg (izoh) yozish talab qilinadi. Teglarini esa lingvistik modellashtirish maqsadga muvofiq, chunki lingvistik modelda morfologik teg shartli qisqartma shaklini oladi.

2.2. Morfologik razmetkalashning lingvistik model va teglari

Razmetkalash jarayonida har bir soʻzshaklga 5 tadan 10 tagacha, baʼzan undan ham koʻproq morfologik teg (izoh) yozish talab qilinadi. Teglarni esa lingvistik modellashtirish maqsadga muvofiq, chunki lingvistik modelda morfologik teg shartli qisqartma shaklini oladi. Har bir soʻz turkumini razmetkalash uchun maxsus lingvistik model shakllari ishlab chiqiladi:

I. Feʼl soʻz turkumi = [f]

Feʼl soʻz turkumini razmetkalashning lingvistik modellarini ishlab chiqishda feʼlning quyidagi grammatik kategoriyalari hisobga olinadi hamda feʼl-lemmalarga soʻzshaklga qarab shu teglardan tegishlisi yoziladi. Soʻz turkumi nomi: Feʼl = [f.]. Leksik-grammatik xususiyatiga koʻra quyidagilar ajratiladi:

1. Leksik-grammatik xususiyatiga koʻra:

- a) mustaqil feʼl = [must. f.]
- b) nomustaqil feʼl = [nomust. f.]
- yordamchi feʼl = [yor. f.]
- koʻmakchi feʼl = [koʻm. f.]
- toʻliqsiz feʼl = [toʻl. f.]

2. Feʼlning asosiy LMGlari sifatida

- 1) harakat feʼli = [har. f.]
- 2) nutq feʼli = [nutq f.]
- 3) holat feʼli = [holat f.]
- 4) natijali faoliyat feʼli = [nat. f. f.]
- 5) tafakkur feʼli = [tafakkur f.]
- 6) munosabat feʼli = [munosabat f.]

2) harakatning obyektga munosabatiga koʻra:

- a) oʻtimli feʼl = [oʻ-li f.]
- b) oʻtimsiz feʼl = [oʻ-siz f.]

3) harakatning real yoki irreal boʻlishiga koʻra:

- a) bo‘lishli fe’l = [b-li f.]
- b) bo‘lishsiz fe’l = [b-siz f.]

4) nisbat kategoriyasi

- a) aniq nisbat = [an. n.]
- b) o‘zlik nisbat = [o‘zl. n.]
- s) majhul nisbat = [maj. n.]
- d) orttirma nisbat = [ort. n.]
- e) birgalik nisbat = [bir. n.]

Fe’lning tuzilishiga ko‘ra turi

- 1. sodda fe’l = [sod. f.]
- 2. qo‘shma fe’l = [qo‘sh. f.]
- 3. juft fe’l = [j. f.]
- 4. takror fe’l = [tak. f.]

Fe’l derivatsiyasi teg sifatida tub fe’l = [t.f.] va yasama fe’l = [ya.f.]ga ajratildi. Yasalishning affiksatsiya, kompozitsiya usuli teg sifatida yozilmaydi, chunki fe’lning tuzilishiga ko‘ra turi, yasamaligi haqidagi ma’lumotning o‘zi yetarli: **ishladi** <ishla> [f], [sod. f.], [ya.f.]. Bu tegda *ishlamoq* fe’lining tuzilishiga ko‘ra sodda yasamaligi haqida ma’lumot bor, sodda fe’l esa faqat affiksatsiya usuli bilan yasaladi. Qo‘shma fe’l teglarida ham kompozitsiya usulida yasaganligini ta’kidlashga hojat yo‘q: **olib keladigan** <olib kel> [f], [qo‘sh. f.], [ya.f.]. Tegdan ko‘rinib turibdiki, tuzilishiga ko‘ra qo‘shma, yasalishiga ko‘ra yasama, kompozitsiya yoki affiksatsiya usulida yasalganligini ta’kidlashga o‘rin qolmaydi.

- I. tub fe’l = [t.f.]
- II. yasama fe’l = [ya.f.]
 - 1. affiksatsiya usuli
 - 2. kompozitsiya usuli

Harakat tarzi kategoriyasi = [har. t.]

- 1. yetakchi fe’l = [yet. f.]

2. ko‘makchi fe‘l = [ko‘m. f.]

Fe‘lning o‘zgalovchi kategoriyasi

1. harakat nomi = [h.n.]

2. sifatdosh = [sif-sh]

3. ravishdosh = [rav-sh]

Fe‘llarda aloqa-munosabat kategoriyasi tegi quyidagi modelga ega bo‘ladi:

5) mayl kategoriyasi

a) xabar mayli = [x.m.]

b) shart mayli = [sh.m.]

s) buyruq-istak mayli = [b.i.m.]

d) maqsad mayli = [m.m.]

6) zamon kategoriyasi

a) o‘tgan zamon = [o‘.z.]

b) hozirgi zamon = [hoz.z.]

s) kelasi zamon = [k.z.]

7) shaxs-son kategoriyasi

I shaxs, birlik = [I sh.b.]

II shaxs, birlik = [II sh.b.]

III shaxs, birlik = [III sh.b.]

I shaxs, ko‘plik = [I sh.k.]

II shaxs, ko‘plik = [II sh.k.]

III shaxs, ko‘plik = [III sh.k.]

Matnda harakat-holat ma‘nosini bildirgan ibora fe‘l-ibora tarzida nomlandi, bunday birlikka “fe‘l-ibora = [f.i.]” tegi biriktirildi.

II. Ot soʻz turkumi grammatik shakllarining shartli qisqartmalari – teglari

Ot turkumidagi soʻzni lemmalash, razmetkalashning dastlabki bosqichida uning umumiy grammatik maʼnosiga asoslaniladi³. Borliqdagi bir turdagi predmetdan biri yoki shu turdagi predmetlarning umumiy nomini bildirishiga koʻra atoqli, turdosh ot maʼnoviy guruhleri hamda ularning turi aniqlanadi. Bu grammatik belgi teg sifatida quyidagicha modellashtiriladi:

Ot soʻz turkumi = [ot]

Borliqdagi bir turdagi predmetdan birining yoki shu turdagi predmetlarning umumiy nomini bildirishiga koʻra

1. Atoqli ot maʼnoviy guruhleri [atoqli ot] = [at. ot.]

[shaxs nomi] = [sh.n.]

[geografik nom] = [geog.n.]

[tashkilot, muassasa, korxona nomi] = [TMK n.]

[samoviy yoritgichlar nomi] = [SYO n.]

[tarixiy sana yoki bayram nomi] = [TS n.]

[hayvon nomi] = [h.n.]

[mahsulot nomi] = [m.n.]

[ilohiy tushuncha nomi] = [iloh.n.]

2. Turdosh ot maʼnoviy guruhleri [turdosh ot] = [tur. ot]

[mavhum ot] = [mavh.o.]

[aniq ot] = [an. o.]

Aniq otlarning maʼnoviy guruhleri:

[modda nomi] = [m.n.]

[shaxs nomi] = [sh.n.]

[shaxsni qarindoshlik jihatdan tavsiflovchi LMG] = [qar. LMG]

³ Sayfullayeva R. va b. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Oʻquv qoʻllanma. – T., Fan va texnologiya, 2009. – 416 b.

[shaxsni yosh jihatdan tavsiflovchi LMG] = [yosh LMG]
[shaxsni kasb jihatdan tavsiflovchi LMG] = [kasb LMG]
[shaxsni jins jihatdan tavsiflovchi LMG] = [jins LMG]
[shaxsni istiqomat jihatdan tavsiflovchi LMG] = [istiqomat LMG]
[shaxsni mansab-unvon jihatdan tavsiflovchi LMG] = [m.u. LMG]
[shaxsni ijtimoiy holat jihatdan tavsiflovchi LMG] = [ij. h. LMG]
[buyum nomi] = [b.n.]
[o‘simlik nomi] = [o‘.n.]
[o‘rin-joy nomi] = [o‘.j.n.]
[miqdor nomi] = [miq.n.]
[tashkilot va muassasa nomi] = [t.m.n.]
[vaqt-rayt nomi] = [v.p.n.]
[faoliyat-jarayon nomi] = [f.j.n.]

Birlik shaklda bir turdagi predmetlarning o‘zini yoki predmet to‘dasini bildirishiga ko‘ra:

[yakka ot] = [ya.o.]
[jamlovchi ot] = [jam.o.]

Tuzilishiga ko‘ra:

[sodda ot] = [s.o.]
[qo‘shma ot] = [qo‘sh.o.]
[juft ot] = [j.o.]
[takror ot] = [tak.o.]

Yasalishiga ko‘ra:

[tub ot] = [t.o.]
[yasama ot] = [yas.o.]
[Transpozitsiya: sifat→ot] = [Trans: sif→o]

Ot-so‘zshaklni tavsiflashda kelishik, egalik, son kategoriyasi asosiy o‘rinni egallaydi, ularning grammatik shakllari quyidagi teg-modellar bilan izohlanadi:

kelishik kategoriyasi

[bosh kelishik] = [b.k.]

[qaratqich kelishigi] = [qar. k.]

[tushum kelishigi] = [tush. k.]

[joʻnalish kelishigi] = [j. k.]

[oʻrin-payt kelishigi] = [oʻ.p. k.]

[chiqish kelishigi] = [ch. k.]

Kelishik shakllarini razmetkalash jarayonida korpusda bir muammoga duch kelinadi. Bu – kelishik shakllarining belgisiz qoʻllanishi masalasi. Belgisiz qoʻllangan kelishik shakli korpus tomonidan bosh kelishik sifatida tushuniladi. Albatta, qoʻl razmetkasida bu muammo yechiladi.

son kategoriyasi

[birlik son] = [birl. s.]

[koʻplik son] = [koʻp. s.]

egalik kategoriyasi:

[I shaxs] = [I sh.]

[II shaxs] = [II sh.]

[III shaxs] = [III sh.]

otning lugʻaviy shakllari:

kichraytirish va shaxsiy munosabat shakllari

-cha, -(a)loq, -jon, -xon, -oy, -bonu

[erkalash maʼnosi] = [erk. LSH]

[kamsitish maʼnosi] = [kams. LSH]

[kichraytirish maʼnosi] = [kich. LSH]

[achinish] = [ach. LSH]

[ot-ibora] = [ot i.]

[Transpozitsiya: sifat→ot] = [Transpoz: sif→o]

III. Sifat turkumi lingvistik modellari

sifat = [sif.]

asliy sifat = [as. s.]

nisbiy sifat = [nis. s.]

daraja kategoriyasi:

oddiy daraja = [od.d.]

orttirma daraja = [ort.d.]

ozaytirma daraja = [oz.d.]

tuzilishiga ko‘ra turi:

sodda sifat = [s.s.]

qo‘shma sifat = [qo‘sh.s.]

juft sifat = [j.s.]

takror sifat = [tak.s.]

yasalishi

tub sifat = [t.s.]

yasama sifat = [yas.s.]

Sifatning LMGlari

Darslik va qo‘llanmalarda sifat LMGlari 6, 8, ba’zan 9 guruhga ajratiladi. Matnni razmetkalashda tasniflar ichida sifat LMGlari to‘liq qamrab olingan tasnifga⁴ asoslanildi

1. Xususiyat bildiruvchi sifat = [xus. LMG]
2. Holat bildiruvchi sifat = [holat LMG]
 - tabiiy holatni bildiruvchi sifat = [tab. h. LMG]
 - jismoniy holatni bildiruvchi sifat = [jis.h. LMG]
 - ruhiy holatni bildiruvchi sifat = [ruh.h. LMG]
 - iqtisodiy holatni bildiruvchi sifat = [iqt.h. LMG]
 - harorat holatini bildiruvchi sifat = [har.h. LMG]

⁴ Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. – T., Fan va texnologiya, 2009. – 416 b.

- tozalik holatini bildiruvchi sifat = [toz.h. LMG]
- eskilik-yangilik holatini bildiruvchi sifat = [e.ya.h LMG]
- ho‘l-quruqlik holatini bildiruvchi sifat = [h.q.h. LMG]
- tinch-notinch holatini bildiruvchi sifat = [tin.h. LMG]
- yetilganlik holatini bildiruvchi sifat = [yet.h. LMG]
- 1. Hid bildiruvchi sifat = [hid LMG]
- 2. Rang-tus bildiruvchi sifat = [r.t. LMG]
- 3. Maza-ta‘m bildiruvchi sifat = [m.t. LMG]
- 4. Shakl bildiruvchi sifat = [sh. LMG]
- 5. o‘lchov bildiruvchi sifat = [o‘l. LMG]
- 6. O‘rin bildiruvchi sifat = [o‘r. LMG]
- 7. Payt bildiruvchi sifat = [p. LMG]
- otlashgan sifat = [otl.s.]
- kesimlik kategoriyasi voqelanishi = [kes.]

IV. Olmosh turkumi lingvistik modellari

Olmosh turkumi razmetkasida uning ma‘naviy guruhlari, tuzilishi, yasalishi, kelishik, egalik, son kategoriyasi kabi morfologik belgilar teg sifatida biriktiriladi. Ushbu grammatik ko‘rsatkichlarning teg ko‘rinishi, lingvistik modellari quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

Olmosh = [olm.]

1. Ma‘naviy guruhlari

Kishilik olmoshi = [kish.olm.]

Ko‘rsatish olmoshi = [ko‘r.olm.]

O‘zlik olmoshi = [o‘z.olm.]

Gumon olmoshi = [gum.olm.]

So‘roq olmoshi = [so‘r.olm.]

Belgilash olmoshi = [belg.olm.]

Bo‘lishsizlik olmoshi =[bo‘l.olm.]

2. Tuzilishiga ko‘ra turi:

Sodda olmosh = [s.olm.]

Qo‘shma olmosh =[qo‘sh.olm.]

Juft olmosh =[j.olm.]

Takror olmosh =[tak.olm.]

3. Yasalishi:

Tub olmosh = [tub olm.]

Yasama olmosh = [yas.olm.]

3. kelishik kategoriyasi:

[bosh kelishik] = [b.k.]

[qaratqich kelishigi] =[qar. K.]

[tushum kelishigi] = [tush. K.]

[jo‘nalish kelishigi] = [j. k.]

[o‘rin-payt kelishigi] = [o‘.p. k.]

[chiqish kelishigi] = [ch. K.]

5. son kategoriyasi:

[birlik son] = [birl. s.]

[ko‘plik son] = [ko‘p. s.]

egalik kategoriyasi:

[I shaxs] = [I sh.]

[II shaxs] = [II sh.]

[III shaxs] = [III sh.]

Ko‘rinib turibdiki, olmoshni lemmalash, razmetkalashda har bir olmosh so‘zshaklga kamida 6ta izoh (teg) biriktiriladi. Teglash ko‘rinishi: shu <shu> [olm.], [ko‘r.olm.], [s.olm.], [tub olm.], [b.k.], [birl. s.]

Olmosh so‘z turkumi razmetkasida morfologik omonimiya muammosi ko‘ndalang turadi. “U” kishilik, ko‘rsatish olmoshi sifatida morfologik omonim ekanligi til egalariga ma’lum. Faqat kontekstdagina bu olmoshning ma’nosi

reallashadi. Dunyoning eng mashhur korpuslari razmetkasida avtomatik razmetkalash usulidan foydalanilgan bo'lsa-da, morfologik omonimlik masalasi inson aralashuvisiz hal etilmagan. Shu tajriba asosida aytish mumkinki, leksik, morfologik omonimlik matn mazmunidan kelib chiqqan holda razmetkalanadi hamda teg sifatida ko'rsatish yoki kishilik olmoshi kabi belgilardan biri yozilib, omonimlik masalasi hal etiladi. Bunday yondashuv faqat morfologik omonimiyaga xos. Matnda uchraydigan *uni* so'zshakli – morfologik omonim. Teg: “Morfologik omonim = [morf.o-n]”. Teglash ko'rinishi: uni <u> [morf.o-n], [olm.], [kish.olm.], [s.olm.], [tub olm.], [tush. k.], [birl. s.]. Razmetkadan ko'rinib turibdiki, matnda u shaxsga ishora qilib, kishilik olmoshi bo'lib kelgan.

V. Son so'z turkumi lingvistik modellari

Son = [s.]

1. Sonning ma'noviy guruhi

Miqdor son LMG = [miq. LMG]

